



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 9 2024-YIL 28-OKTABR

## ADIBLAR XIYOBONIDA «MA'RIFAT ULAŞIB» TADBIRI



Toshkent tibbiyot akademiyasi jamoasi ishtirokida "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida shoirlar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Tadbiriga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira Ma'mura Zohidova tashrif buyurdi. Shoira ishtirokchilarga iliq tilaklarini bildirar ekanlar shu bilan birlgilikda Zulfiyaxonim hayoti va ijodidan o'rnat olib, o'zbek mumtoz adabiyotini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish borasida tavsiyalar berib o'tdi. Shoira so'zi yakunida o'zining ijod mahsuli bo'lgan "Opamga xat" nomli she'rini o'qib berdi.

Tadbirda Olmazor tumanidagi 29-slonli umumita'l'im maktabi o'quvchilari tomonidan "Ustozim" she'reni bilan qatnashib, ishtirokchilarga o'zgacha kayfiyat baxsh etishdi.

Bundan tashqari, ushu loyiha doirasida shoir Muhiddin Omon hamda Botirjon Ergashevlarining ijod namunalari talabalar tomonidan ijro etildi.

TTA Matbuot xizmati

## SAYLOV 2024 27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

### FUQAROLARNING TENG SAYLOV HUQUQI KAFOLATLARI YANADA MUSTAHKAMLANDI

Davlatimiz rahbari joriy yil 4-sentabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariiga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonunni imzoladi.

Senat axborot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, 56-yalpi majlisda ma'qullangan mazkur qonun jamiyatimizda har bir inson o'zi tanlov qilish va uni ro'yobga chiqarish huquqiga ega ekanligini o'zida ifoda etgan. Shu orqali har bir fuqaroning teng saylov huquqi va ovoz berish shaffofligi kafolatlari qonunchiligidizda yanada mustahkamlandi.

Zero, saylov tizimi xalq suverenitetining haqiqiy quroli, bunda har bir ovoz muhim va mamlakat kelajagiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham qonunchilikda fuqarolarning manfaatlarini davlat organlarida to'laqonli ifodalananishini ta'minlash uchun shaffof va adolatli saylov tizimi yaratilgan.

Aytib o'tish joizki, o'tgan saylovlarda bir shaxsnинг boshqa shaxs va shaxslar nomidan saylov byulletenlarini bir necha marta to'ldirish bilan bog'liq holatlar kuzatilgan.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar xulosasida takror, boshqalar nomidan va guruh bo'lib ovoz berish uchun qonunchilikda aniq javobgarlik chorasi mavjud emasligi qayd etilgan edi.

Yuzaga kelgan bunday kamchiliklar saylov tizimi bilan bog'liq bo'lgan qonunchilikka tuzatishlar kiritish zaruriyat mavjud ekanligini hayotning o'zi ko'rsatadi.

Qabul qilingan qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga saylov jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

(Davomi 2-betda)



Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmis ranj ila,  
Aylamat bo'imas ado, oning haqin yuz ganch ila.

Alisher Navoiy



## FUQAROLARNING TENG SAYLOV HUQUQI KAFOLATLARI YANADA MUSTAHKAMLANDI



(Boshi 1-betda)

Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ayrim moddalariga o'zgarishlar kiritilib, saylov (ovozi berish) byulletenlarini berish tartibini buzganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravarigacha miqdorda jarima solinishi belgilandi.

Shuningdek, saylovda ishtirok etish uchun ajratilgan davlat mablag'lari to'g'risidagi oraliq yoki yakuniy hisobotni siyosiy partiya tomonidan Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik, hisobotda bila turib noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, mansabдор shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilandi.

Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etish uchun ajratilgan davlat mablag'laridan foydalanish bo'yicha mas'uliyati kuchaytirilishi oshkoraklikni ta'minlaydi.

Bu saylov oldi tashviqotini moliyalashtirish ustidan samarali nazoratni amalga oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suiste'molliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Qonun har bir fuqaroning teng saylov huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlashga, "oilaviy" ovoz berish hollarining oldini olishga, saylov kampaniyasi davrida foydalanilgan davlat budjeti mablag'lari to'g'risida tezkor va ishonchli axborot taqdim etishning huquqiy asoslарini takomillashtirishga, siyosiy partiyalarning moliyaviy hisobdorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**N.ABDURAIMOVA,**  
O'zA muxbir

# AKADEMIYA MAGISTRANTI DEPUTATLIKKA NOMZOD

Toshkent tibbiyot akademiyasi "Akusherlik va ginekologiya" 1 -bosqich magistranti Ahmadjonova Muhayyo Akramjon qizi Akademianing bakalavr bosqichida ta'lim olgan paytlarida - 2018-2024-yillar mobaynida tibbiyot sohasida o'tkazib kelinadigan Respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiada, ilmiy-amaliy konferensiya va ilmiy anjumanlarda g'oliblikni qo'lg'a kiritib kelgan.

Bakalavriat bosqichini yakunlagandan so'ng Namangan viloyati Kosonsoy tumani KTMPsida oilaviy shifokor lavozimida ishladi. 2022-yil Akademiya tomonidan ta'sis etilgan "O'zbekiston Qahramoni Akademik Malika Samatovna Abdullaxo'jayeva nomli", "Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasi", "Professor Erkin Yuldashevich Kasimov nomli stipendiya" sovrindori hisoblanadi.

Bundan tashqari, joriy yilda Janubiy Koreya davlati Dayegu Haany Universitetida "Traditional korean medicine summer school" "Koreys an'anaviy tibbiyot yozgi maktabi"da amaliyat o'tab keldi.

2024-yil Moskva shahrida bo'lib o'tgan "Uznam Rossiyu 2024" dasturida borib ishtirok etganini alohida ta'kidlash joiz. Bundan

tashqari, Muhayyo Ahmadjonova sportning stol tennis turi bo'yicha 2 karra O'zbekiston championi, Universiada - 2022 g'olibidir. 2021/2023-o'quv yili mobaynida "Kuylagim keladi yurt jamolini", "Ko'zimga kel" va "Zulfiyaxonim izdoshlari" she'riy to'plamlari muallifi.

Tibbiyotning dolzarb muammolariga bag'ishlangan 45 dan ortiq tezis va ilmiy maqolalari (AQSH, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Yevropa va mahalliy jurnallar) nashrlarida chop etmoqda.

Bu iqtidorli talabamiz shu yili Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan tibbiyot, sport, adabiyot sohasidagi erishgan yutuqlari uchun "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti" bilan taqdirlandi.

Mana shunday e'tirofga loyiq topilgan talabamiz O'zbekistondagi eng yosh (25 yosh) deputat sifatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzodi qo'yilgani biz uchun quvonarli albatta.

Iqtidorli talabamiz Vatanga sadoqat, uni cheksiz sevish kabi fazilatlari bilan yoshlarni o'z ortidan ergashtirish, uyuştirish, sport orqali yosh talabalarni sog'lomlashtirishga jaib etish qobiliyatiga ega.

**Iroda MAHKAMOVA,**  
TTA Xotin-qizlar kengashi raisi



*Til — so'zlovchi istagini eshituvchiga  
yetkazuvchi tarjimondir.*

*Abu Rayhon Beruniy*





## UNUTILMAS ONLAR...

Toshkent shahrining muhtasham Alisher Navoiy nomli kino saroyida Toshkent tibbiyot akademiyasiga birinchi bosqichga qabul qilingan talabalarning qasamyodiga bag'ishlangan "Talabalikka bag'ishlov" hamda "Ustoz va murabbiylar kuni"ga bag'ishlab tantanali tadbir o'tkazildi.

Mazkur bayram shodiyonasiga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri v.v.b A.Xudayarov, Oliy ta'limgan, fan va innovatsiyalar vaziri Q.Sharipov, vazirlilik mutasaddi xodimlari, TTAg'a qabul qilingan 1700 nafr birinchi kurs talabalari, professor-o'qituvchilar ishtiroy etdi.

Bayram tadbiri boshlanishi oldidan yig'ilganlar e'tiboriga TTA faoliyati to'g'risidagi filmlar, iqtidorli talabalarning yutuqlari ifodalangan videoroliklar namoyish etildi.

Dastavval tibbiyot asoschilari bo'lgan Aflatun, Gippokrat, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ar-Roziy ishtiroyida teatrlashgan sahna ko'rinishi namoyish etilib, buyuk mutafakkirlar siyomisi tomonidan tibbiyotga ilk qadam tashlagan yoshlarga tibbiyot sohasiga asos solinishi tarixi to'g'risida gapirib, birinchi kursga qabul qilingan talabalarni ushbu oliygohda bilim olishga loyiq deb topilganligi, kelgusida ushbu oliygojni buyuk olim ulamolari, professor, akademiklari, yetuk vrachlari bo'lib yetishib chiqishlari uchun tilaklar bildirildi. Shifokorlik sirini saqlab, to umrlarini oxiriga qadar shifokorlik san'ati va qasamyodiga sodiq qolishga, Ma'nun akademiyasini an'analarini davom ettirishga, ularning davomchisi sifatida ijodiy mehnatlarini, tabiat va koinotni yangi sirlarini ochishga, insonlarni insonparvarlik g'oyalari asosida shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishga, inson hayotini asrab qolishdek buyuk vazifani adolatli bajarishingizga qaratilgan o'gitlari, nasihatlarini in'om etdilar va TTAg'a eng yuqori ballar bilan o'qishga tavsija etilgan a'luchi talabalarga "Qasamyod varag'", "TTAning ramziy belgisi", "Tib qonunlari kitobi", "Kasallik tarixi bayonnomasi"ni topshirdilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiysi yangradi.

Tantanali tadbirni Sog'liqni saqlash vaziri

hamda Oliy ta'limgan, fan va innovatsiyalar vaziri ochib berishdi.

Shundan so'ng TTA rektori v.v.b Sh.Boymuradov so'zga chiqib, eng nufuzli va yetakchi, 100 yillik tarixga ega bo'lgan tibbiyot oliygohlardan biri sanaladigan Toshkent tibbiyot akademiyasi bugungi kunda chin ma'noda Raqamli (smart) universitet ekanligi, hozirda 7 ta fakultet hamda 56 ta kafedra, 14 ta bakalavraviat ta'limgan, 38 ta magistratura mutaxassisliklari hamda 40 ta ordinatura, 33 ta doktorantura ixtisosliklari, 7 ta internatura mutaxassisliklari faoliyat olib borayotganligi ayni kunda 1000 nafr professor o'qituvchi, shu jumladan, 212 nafr fan doktorlari, 347 nafr fan nomzodlari va dotsentlar, 403 nafr assistant va o'qituvchilar 14 mingdan ziyod yoshlarga ta'limgan berayotgani, talabalarimizning qariyb 2000 nafarini xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan yoshlar tashkil etishi, ta'limgan oluvchilar va ta'limgan beruvchilar uchun ulkan imkoniyatlari va sharoitlar yaratilganligi, talabalarning amaliyot o'tashlari, kasbiy kompetensiyalarni mukammal darajada o'zlashtirishlari uchun zamonaviy 4-avlod simulyatsion uskunalar va texnikalari bilan ta'minlangan Simulyatsiya markazlar, innovatsion zamon talablari asosida jihozlangan Axborot resurs markazi, uning talabalar turar joylaridagi 7 ta filiallari, "Elektron kutubxonasi" platformasi, 44 turdag'i zamonaviy ilmiy-tadqiqot uskunalarini bilan jihozlangan Biotibbiyot texnologiyalar markazi, "Til o'rgatish markazlari" to'g'risida shuningdek, Toshkent tibbiyot akademiyasining 19 ta ta'limgan dasturlari Juhon tibbiy ta'limgan federatsiyasining Mustaqil akkreditatsiya va reyting agentligi ekspertlari tomonidan eng kuchli sifatlari e'tirof etilib, xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tganligi to'g'risida gapirib o'tdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari uchun oxirgi yillarda qator muvaffaqiyatlarni tuhfa etganligi, talabalar orasidan 2 nafr Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, 1 nafr "Kelajak bonyodkori" davlat mukofoti, 2 nafr "Mard o'g'on" davlat mukofoti sovrindorlari, 2 nafr Ibn Sino stipendiyasi sohiblari, 5 nafr Mirzo Ulug'bek vorislari tanlovi g'oliblari yetishib chiqqanligi, "Zakovat",

QVZ, Teatr studiyalari festivallarida TTA jamoasi g'oliblikni qo'ldan bermay kelayotganligi to'g'risida faxr bilan gapirib, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Akademiyada ta'sis etilgan mashhur olimlar, akademiklar nomidagi 400 ga yaqin stipendiyalar va nominatsiyalar tanlovlari qariyb 3000 nafr talaba ishtiroy etib, stipendiya sovrindorlari bo'layotganligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng ko'p yillar davomida TTAda samarali faoliyat olib borayotgan va uning rivojiga o'z yutuqlari bilan hissa qo'shayotgan professor-o'qituvchilar e'tirof etildi.

Akademiya professor-o'qituvchilarining 4 nafariga "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni, 7 nafariga "Oliy ta'limgan a'lochisi" ko'krak nishoni, 2 nafariga Sog'liqni saqlash vaziri faxriy yorlig'i topshirildi. Shuningdek, 72 nafr professor-o'qituvchi TTA rektorining tashakkurnomasi va pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.

Tadbirning tantanali taqdirlash qismidan so'ng sahnaga eng a'luchi birinchi kurs talabalari taklif etildi. Ular tomonidan 1700 nafr talaba jo'rligida "Talabalik qasamyodi" o'qildi.

Sahnaga "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari Axmadjonova Muhayojon, Xakimova Shaxzoda, "Mard o'g'on" Davlat mukofoti sohiblari Valijonov Azizbek va Nazarov Azizbek, "Kelajak bonyodkori" Davlat mukofoti sovrindori Qiymanova Marjonalar taklif etildi va ular birinchi kurs talabalariga tabrik yo'lladilar.

An'anaga ko'ra magistratura yo'naliishi talabalar tomonidan Prezident maktabi bitiruvchilari bo'lgan va kirish imtihonlarida eng yuqori ballar bilan TTA safiga o'qishta qabul qilingan iqtidorli talabalarga TTAning ramziy Sinov daftarchasi va fonendoskop topshirildi.

Shundan so'ng tantanali tadbirning badiiy qismiga navbat berildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining Navo-shifo ansambl tomonidan tashkil etilgan konsert dasturi namoyish etildi.

**Shafoat BEKNAZAROVA,  
TTA Yoshlar bilan ishlash,  
ma'naviyat va ma'rifat bo'limi  
uslubchisi**

*Ta'limgan faqat so'z va o'rgatish bilan bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo'ladi.*

*Umar Hayyom*



# S

**OG'LIQNI  
AQLASH  
OHASIDAGI  
TARTAP**

## LOYIHALAR TAQDIMOTI O'TKAZILDI

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan Toshkent tibbiyot akademiyasi ishtirokida "Startup Evaluation: HealthTech Series" loyihasi doirasida sog'liqni saqlash sohasida yosh startap tashabbuskorlarining startap loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Tadbirda Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarini va tadqiqotchilari respublikada sog'liqni saqlash kelajagini rivojlantirishga qaratilgan startap loyihalarini taqdim etdi. Tadbirda kasalliklarni zamonaviy davolashni tashkil etish, tibbiy xizmatlardan foydalanish bo'yicha elektron platformalar, dordamnlardan foydalanish bo'yicha mobil ilovalarni yaratish, tibbiyot yo'nalishidagi mutaxassislarini tayyorlash va o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ta'lif loyihalari, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan 12 ta startap loyihalar taqdim etildi.

Startap tashabbuskorlari Innovatsiyalarni joriy etish va

texnologiyalar transferi milliy ofisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "ASTRUM IT" akademiyasi, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Germaniyaning Kyoln Media, kommunikatsiya va boshqaruv sohasida amaliy fanlar universiteti (HMKW) va Oliy biznes maktabi kabi tashkilotlarining yetakchi biznes maslahatchilari, professorlar va soha mutaxassislaridan mentorlik maslahatlari, tavsiyalari va biznes yechimlarini olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Startap loyihalar muhokamasi davomida ishtirokchilar respublikada sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish va tibbiy xizmatlarning ommabopligi va yugori sifatini ta'minlash uchun sun'iy intellekt, buyumlar interneti, dasturiy yechimlar, shuningdek, katta ma'lumotlarni qo'llagan holda innovatsion texnologiyalarni yanada joriy etish muhimligini ta'kidladi.

Xususan, xorijiy ekspert Martin Bekkenkamp Germaniyaning Kyoln Media,

kommunikatsiya va boshqaruv sohasida amaliy fanlar universiteti (HMKW) professori e'tirof etishicha, sog'liqni saqlash va tibbiy texnologiyalar sohasidagi startaplar O'zbekiston tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shishi mumkin.

Bunday tadbirlarni o'tkazish talabalar va yosh mutaxassislar o'tasida tadbirkorlik faoliigini rag'batlantrishga yordam beradi, ularni tibbiy xizmatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilashi va sog'liqni saqlashning ommabopligini oshirishi mumkin bo'lgan yangi loyihalarni yaratishga ilhomlantiradi.

Tadbir yakunida ekspertlar startap loyihalarni yaratish bo'yicha qimmatli biznes maslahatlari va o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi hamda loyihalar tashabbuskorlari bilan ularning startaplarini amalga oshirishni yanada qo'llab-quvvatlashda hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

TTA Matbuot xizmati

## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASIDA “BESH TASHABBUS OLIMPIADASI” DAVOM ETADI

Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMH fakulteti Fundamental tibbiyot yo'nalishi talabalarini bilan birgalikda "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida "Biz bir bo'lsak – yagona xalqımız, birlashsak – Vatanımız!" shiori ostida sportning yengil atletika, stol tennisi, stritbol, mini-futbol, voleybol sport turi bo'yicha yigitlar va qizlar o'rtasida juda qizg'in tarzda guruhalaro musobaqa o'tkazildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlarning iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishga doimiy ravishda e'tibor qaratilmoqda.

I.MAHKAMOVA



*Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki  
so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi.  
Jaloliddin Rumiy*



21-oktabr O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun

## TIL – MILLAT QIYOFASINING BIR BO'LAGI

Inson tafakkuri mahsuli hisoblanmish nutq bevosita yozma va og'zaki ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning tur mush tarzi, tarixidir. Ona tilimiz – o'zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda Davlat tili maqomi berildi. Bu tarixiy voqeа mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz, millat hayotidagi unutilmas kundir. Bu kunni O'zbek tili bayrami sifatida nishonlash milliy tilimizni, o'zligimizni qadrini ulug'lash til sharafiga berilgan e'tirokdir.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi, til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo'lib, mavjud tillarning 90 foizining har biridan 100 000 aholi foydalaniadi. Mana shuning o'ziyoq bu tillarning kelajagi qorong'iligidan dalolat beradi. Bugungi kunda 357 tilda atigi 50 nafer kishi so'zlashar ekan. 46 tildan esa atigi bir kishining foydalaniishi aytildi. Ularning o'limi bilan bu tillar ham yo'qoladi. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250 taning ichida ekan quvonarli, albatta. Qachonki bolalar o'z ona tillarida o'qishni to'xtatar ekan, o'sha til yo'qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi.

Biyuk alloma Alixonto'ra Sog'uniy o'tgan kunlarda millatni o'z tiliga bo'lgan e'tiboridan so'z yurita turib shunday degandi: "Qaysi bir millatning ona tili o'z hojatini o'tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamayoq, insoniy huquqlaridan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalam'i chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg'izgina Vatanlardan emas, balki butun borlig'i bilan tarix yuzidan yo'qolishga majbur bo'ladi".

Xo'sh, bugun-chi! Ona tilimiz qay peshtaxtaning toqida, qay matbuotning ortida yoki uyali telefonlar poyidan bizga boqib o'z tanazzulini namoyon etmayaptimi? Biz bugun xalq taqdiri bilan bog'liq til taqdiriga qanday munosabatda bo'lmoqdamiz? Kunlik SMSlar, lajha va shevaga boy matbuot bongi! Internetdagi "muloqot"! Bu barchamizning tanazzulimiz emasmi?

Biz befarqliq qobig'iga o'ralsaq til tanazzuli bo'lishi shubhasizdir. Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'analarini saqlaydi. Millatni birdamligi, boy o'tmishini bugun asrab avaylagan til olib chiqadi. Ona tilimiz – O'zbek tili, ardoq va humratga loyiq deya o'rganilib, asrlar osha o'z e'tibor va nufuzi bilan dunyo minbarlarida sadosi baralla jarang sochaversin.

Nozima MIRAZIMOVA,  
Toshkent tibbiyot  
akademiyasi 2-davolash  
fakulteti 102-guruh talabasi

## QOZOG'ISTON– O'ZBEKISTON TIBBIYOT SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA



So'nggi paytlarda mamlakatimiz tibbiyot sohasidagi xalqaro hamkorlik geografiyasi va ko'lami sezilarli darajada kengaydi. Buning natijasi o'laroq, bugun dunyoning ko'plab nufuzli tibbiyot tashkilotlari, tibbiy olyi ta'lim muassasalari va moliya institutlari bilan birqalikda qator loyihalari hayotga tatbiq etilmoqda.


Toshkent tibbiyot akademiyasiga Janubiy Qozog'iston tibbiyot akademiyasi rektori Janna Seytjanova boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Delegatsiya dastavval Toshkent tibbiyot akademiyasida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Shundan so'ng, ikki tomonlama hamkorlik masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazildi. Qayd etilishicha, keyingi yillarda tibbiyot sohasi bo'yicha ikki tomonlama hamkorlik aloqalari izchil rivojlanmoqda. Ayni paytda tomonlar tibbiyot tizimini raqamlashtirish, tibbiy ta'limni yangi bosqichga olib chiqish kabi qator yo'nalishlarda yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

Uchrashuvda ushbu belgilangan ustuvor maqsad va vazifalar ijrosini jadallashtirish masalasi ko'rib chiqildi. Shuningdek, sog'lioni saqlash sohasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish, birqalikda ilmiy-amaliy konferensiylar, forumlar, seminar va ko'rgazmalar tashkil etishga kelishildi.

*Bir yurtda yashab turib, o'sha xalq tilini bilmaslik: birinchidan – o'sha xalqqa nisbatan humatsizlik. Ikkinchidan – o'sha xalqdan o'zini ustun qo'yish. Uchinchidan – g'irt nodonlik!*

*O'tkir Hoshimov*



**Dentologiya saboqlari**

## MA'NAVIYATNING ASOSI BILIM

Deontologiyada «yatrogeniya» tushunchasi bor. Bu tib xodimining farosatsizligi, ilmi sayozligi, nojo'ya ko'rsatmalari, qo'pol xattiharakatlari, johilligi, manmanligi, o'zgalar fikri bilan hisoblashmasligi, loqaydligi tufayli paydo bo'lgan kasallikdir. Bu buyuk tib allomasi Gippokratning «Zarar keltirma» degan naqlining buzilishi oqibatidandir.

Bunday kasalliklar bugungi kunda uchraydigan xastaliklarning 10 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Egrotogeniya atamasi esa bemorga boshqa bir xastaning salbiy ta'sirini bildiradi. Bunday gapdon va «suxandon» bemorlar bemorxonaga kelganida xastalarga o'z bilganlaricha maslahat va tavsiyalar beradi va aksariyat hollarda o'z tinglovchilarini ruhiy tushkunlik, meditsinaning qudrati va shifokorning layoqatiga ishonmaslik holatlariga olib keladi.

«Insonda hamma narsa: chehra ham, kiyim ham, qalb ham, fikr ham go'zal bo'lishi lozimdir», degan edi rus shifokor-yozuvchisi A.Chexov. Iqtiboslardan ko'rinish turibdiki, shakl va mohiyat go'zalligi har bir insonning, avvalambor tib xodimining turmush tarziga aylanishi lozim.

Tib deontologiyasi va kasb etikasi tib xodimlaridan yuksak insoniy fazilatga ega bo'lishini taqozo qiladi. Bu fazilatlar — bilimdonlik, odamiylik, jasoratlilik, mehr-shafqatilik, xushmuomalalik, halollik, pokizalik, insofililik, sofyllik, ziyraklik, hozirjavoblik, bosiqlik, kamtarlik, izlanuvchanlik, xayrixohlilik, andishalilikda ko'rindi.

Aksariyat bemorlar odatda kasalxonaga tushganidan keyin o'z yaqinlaridan, o'zining mikrodunyosidan uzoqlashib, «yakka-yolg'iz» qolgandek tushkunlik va so'lg'inlik his etadi. Bunday paytda tib xodimlari uning eng yaqin ota-onasi, farzandlari, qon-qardoshlari o'rnnini bosadigan darajada yaqin va samimiyo bo'imoqliklari lozim.

Tib xodimlari tomonidan tovushni baland qilib gapirish, o'grayish, bemor gapini bo'lish, shartakilik, qo'pol muomala, olifta iboralardan foydalanish, ortiqcha taqinchoqlar taqish, saqich chaynash, nos, sigareta chekish, spirtli ichimliklar ichish tib xodimi odobiga yarashmaydigan illatlardan hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifat esa shifokorning eng zarur omillaridan biri bo'lib, bu ularning qalb ko'zidir. Ma'naviyatning asosi esa bilim, hayo va shirin kalomlilikdir.

**F.IRSALIYEVA,  
tibbiyot fanlari doktori, professor**



## MA'RIFAT ULA SHIB....

Toshkent tibbiyot akademiyasida o'tayotgan har bir kunim mazmunli, qiziqarli va unutilmas voqealarga va tadbirlarga boy bo'ladi.

Ana shunday tadbirlardan biri kuni kecha bo'lib o'tdi... Akademiyaga O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zolari – Botirjon Ergashev, Ma'mura Zohidova hamda Muhiddin Omonlar tashrif buyurishdi. Tadbirda Akademianing iqtidorli talabalari, tajribali professor-o'qituvchilar, ma'rifat va tibbiyot ilmi fidoiyları ishtirok etdi.

Talabalar ishtirokida turli suhbatlar o'tkazildi. Tadbirda so'zga chiqqanlar bu kabi uchrashuvlarning asosiy maqsadi talabalarga yuksak ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarni singdirish hamda bizning kelajakdagagi professional faoliyatimizda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tishdi.

Mehmonlar o'z tajribalari va hayotiy saboqlari bilan talabalarga motivatsiya berib, ularning kasbiy yo'nalishdagini savollari va muammolariga yechimlar taklif qilishdi.

Sevimli adiblarimiz bizning sher va qo'shiqlarimiz, ko'rgazmali rasmlar taqdimotimizdan xursand bo'lishdi.

Tadbir davomida "O'z kasbining yetuk mutaxassisini bo'lish uchun nima qilish kerak?", "Kelajakda qanday yo'nalishlarda faoliyat olib borish mumkin?" kabi mavzularda ochiq muloqotlar o'tkazildi. Ishtirokchilar orasida bo'lgan iqtidorli talabalar o'z yutuqlari va ilmiy izlanishlari bilan o'rtoqlashdi, bu esa boshqa talabalarni ham rag'batlantirdi.

Tadbir yakunida eng faol talabalar va ishtirokchilar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanib, ularning kelgusidagi ilmiy izlanishlari va kasbiy faoliyatlariga muvaffaqiyatlar tilandi.

"Ma'rifat ulashib" tadbiri talabalarning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ularni yangi marralarga undash va bilim almashishning samarali usuli sifatida Toshkent tibbiyot akademiyasi hayotida muhim qadam bo'ldi. Bu kabi tadbirlarning doimiy ravishda o'tkazilishi ta'lim muassasasi talabalarining bilim va ko'nikmalarini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.

**Adiba ABDURAYIOMOVA,  
TTA 3-bosqich talabasi, "Doctor Reporter klubi" faoli**

*Inson mehnatdan to'xtasa, kamolotdan ham  
to'xtaydi. Chunki kamolot saroyining poydevori  
ham, devori ham mehnatdir.*

*Tohir Malik*



*O'tganlarning oxirati obod bo'lsin*

## KARABAYEVA RAXILYA



**Olima va mehridaryo ustoz, O'zbekiston revmatologlar matabining assoschilaridan biri, umrini inson salomatligini himoya qilishga va ilm-fanga bag'ishlagan Karabayeva Raxilya Abzalovna endi oramizda yo'qlar...**

Tibbiyot fanlari doktori, professor, mehnat faxriysi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimining a'llochisi Raxilya Karabayeva 1928-yil 19-dekabrdan tug'ilgan. 1951-yilda Toshkent Davlat tibbiyot institutini tamomlab, "Glav. Tashkentstroy" kasalxonasida shifokor bo'lib ishlagan. Mehribon ustoz Moskvadagi aspiranturaga o'qishga kirdi. Yillar o'tib aspiranturani tugatgandan so'ng Moskvada ichki

kasalliklar kafedrasida assistent bo'lib professor Melik Karamyan rahbarligida 1955-yilda nomzodlik, 1972-yilda Tibbiyot fanlari akademiyasining vitse-prezidenti, akademik Anatoliy Inokentiевич Nesterov rahbarligida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Himoyadan keyin Toshkentga kelib, 16-shahar kasalxonasida professor R.A.Kasenovich kafedrasida ish boshladi. So'ngra 1980-yildan 2-tibbiyot fakulteti ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasiga mudirlilik qildi.

Tajribali pedagog va ustoz, respublikamiz sog'liqni saqlash tizimida o'z yo'nalishi bo'yicha 100ga yaqin ilmiy ishlari muallifidir. Ilmiy tadqiqotlar revmatologiya masalalariga bag'ishlangan. Uning rahbarligida "Revmatizmnинг tarqalishini va turli atrof-muhit omillarining ta'sirini o'rganish" dolzarb mavzusida ish olib borildi. O'zbekiston Respublikasi bosh revmatologi tashhabbusi bilan 1986-yildan boshlab har yili revmatologik kasalliklarni tashxislash, davolash, oldini olish va tibbiy ko'rakdan o'tkazishning eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar-yig'ilish va konferensiylar o'tkazib kelingan. Toshkent shahrida ilmiy-amaliy konferensiylar o'tkazilar, unda barcha ittifoq respublikalaridan revmatolog olimlar, yetakchi professorlari ishtirok etardi. Bu

davrda olima revmatologiyaga oid 100 dan ortiq asarini nashr ettirdi, talabalar uchun ichki kasalliklar propedevtikasi bo'yicha o'zbek tilida o'quv q'llanma va 1 ta monografiya nashr ettirdi, o'nlab yuqori malakali revmatolog mutaxassislar tayyorladi. Uning rahbarligida Bangladeshdan kelgan JSST aspiranti revmatologiya bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatliligi himoya qildi.

Ustoz uzoq yillarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borib, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan. Kafedra xodimlari va tibbiyot ilmfani fidoyisi professor R.Karabayeva rahbarligida talabalar uchun bir qator o'quv-uslubiy qo'llanmalar va darsliklar chop ettirishgan.

Olma minglab bemorlarning xastaliklardan xalos bo'lishi yo'lida ilmiy izlanishlar olib bordi, sohada bir qator ko'zga ko'rinarli yangiliklar yaratdi.

Soha rivojiga hissa qo'shishni diliiga jo qilgan ustoz 1985-yildan boshlab kafedra S-O06 revmatologiya bo'yicha Butunitifoq dasturini ishlab chiqishda ishtirok etgan. Fan va texnika davlat qo'mitasi topshirig'iga binoan ushbu dasturning bir qismi bo'lgan kengaytirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Taniqli olima, t.f.d, professor Raxilya Abzalovnaning porloq xotirasi O'zbekiston tibbiyoti, hamkasbli va shogirdlari qalbida mangu yashaydi.

**TTA rektorati, kasaba uyushmasi va kafedra xodimlari jamoasi**

## GIYOHVANDLIKKA QARSHI BIRGALIKDA KURASHAMIZ

Toshkent shahar Olmazor tumani IIOFMB boshlig'i o'rinnbosarlari, podpolkovnik A.Valiyev, podpolkovnik U.Karimov, Toshkent tibbiyot akademiyasi ma'nnaviy-ma'rifiy va yoshlar masalalari bo'yicha birinchi prorektori T.Bobomuradov, Toshkent tibbiyot akademiyasida tahsil oluvchi talabalar hamda Hindiston davlatidan kelib tahsil oluvchi hindistonlik talabalar ishtirokida "Giyohvandlikka qarshi birgalikda kurashamiz" mavzusida davra suhbati bo'lib o'tdi.

Suhbat davomida U.Karimov talabalarga 20-sentabrdan 20-oktabrgacha yurtimizda "Giyohvandlikka qarshi

kurashish" oyligi o'tkazilib kelayotganligini, ushbu oylikda barcha talabalar faol ishtirok etishlari kerakligini ta'kidlab o'tdi.

Hozirgi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan global muammolardan biri giyohvandlikdir. Giyohvand moddalar inson organizmini butunlay ishdan chiqarib, uning ma'nnaviy ruhiy dunyosiga jiddiy putur etkazadi. Unday zahri qotil narsalarga duchor bo'lgan, ya'ni ruju qo'yan kimsalar o'z hayot tarzi o'zgarib, odamlar orasida obro'-e'tiborini yo'qotib, ko'pchilik nazdida va nazarida o'ta xavfli shaxs bo'lib ko'rineraveradi.



*Eng katta boylik — bu qanoat.*

*Ne'mat Aminov*



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI  
(2024-yil oktabr)**

Nº	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi	dotsent – 1,0
2.	1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi	assistant – 1,0
3.	Urologiya	dotsent – 1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
4.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	assistant – 1,0
5.	Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi	katta o'qituvchi – 1,0
6.	2-son umumiy xirurgiya	assistant – 1,0
7.	Normal va patologik fiziologiya	assistant – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti</b>		
8.	Otorinolaringologiya	assistant – 1,0
9.	Otorinolaringologiya	professor – 1,0
10.	Yuz-jag' jarrohligi va stomatologiya	assistant – 1,0
11.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari	assistant – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
12.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistant – 1,0
13.	Patologik anatomiya	assistant – 1,0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliv ma'lumotli hamshira fakulteti</b>		
14.	Jamoat salomatligi va menejment	assistant – 1,0
15.	Jamoat salomatligi va menejment	katta o'qituvchi – 1,0
16.	Farmakologiya	assistant – 1,0
17.	Farmakologiya	katta o'qituvchi – 1,0
18.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistant – 1,0
19.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	assistant – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
20.	Akusherlik va ginekologiya	katta o'qituvchi – 1,0
21.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	dotsent – 0,75
<b>Xalqaro fakultet</b>		
22.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistant – 1,0
23.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	katta o'qituvchi – 1,0
24.	Tibbiy va biologik kimyo	assistant – 1,0
25.	Tibbiy va biologik kimyo	katta o'qituvchi – 1,0
26.	O'zbek va xorijiy tillar	katta o'qituvchi – 1,0
27.	O'zbek va xorijiy tillar	o'qituvchi – 1,0

Hujjalarni tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFIda  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun mas'ul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi